

Fanlar akademiyasi Yosh olimlar kengashi faoliyati yangi bosqichda!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 390-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida FA Yosh olimlar kengashi faoliyati tubdan qayta ko'rib chiqildi.



Yosh olimlar kengashining yangilangan tarkibi tomonidan Kengashning vazifalari va faoliyati tahlil qilinib, yosh olimlar uchun karyera, grant, nashr, mentorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi. Kengashning yangilangan Nizomi bir ovozdan ma'qullandi.

2026-yil uchun Yosh olimlar kengashining ish rejasi tasdiqlandi. Unda grantlarda yoshlar ulushini kamida 30% ta'minlash, akademiklar va yosh olimlar o'rtasida mentorlikni yo'lga qo'yish, arxiv va ekspeditsiya yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash kabi muhim vazifalar belgilandi.

Islohotlar yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.